



ROBINDRANATH THAKURNING “SHUBXA” HIKOYASIDA INSONIY SIFATLARNING YORITILISHI

Ergasheva Dilshoda Abdusalomovna

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti tillar fakulteti tyutori

Tel: +998939919140

dilshodamuslimabonu@gmail.com

Annotatsiya: R.Thokurning “Shubxa” hikoyasida go‘zal, biroq soqov qiz Shubxanishining qalb kechinmalari yozilgan. Uning suhbatdoshi insonlar emas, ona tabiat, ikki sigir va yalqovgina baliqchi bola Protap. Qizaloq voyaga yetdi. Uning erga tegish xabarini Protapdan eshitdi. Qiz Protapni yoqtiradi. Yigit ham. Lekin asarda buni dalil so‘z bilan o‘qimaysiz, ikki yoshning hislari bilan anglaysiz, xolos. Hayvonlarning ham insoniy sifatlar bilan ta’riflanishi barcha jonli narsalar, aslida, hissiyotlar qo‘rshovida, lekin bunga ko‘p ham ahamiyat bermasligimizni o‘ylashimizga turtki beradi.

Kalit so'zlar: “Subxa” hikoyasi, xush tabassum, shirin zabon, yolg‘izlik, ko‘z tili, insoniy sifatlar, predmetlarning insoniy sifatlar bilan sifatlanishi, hikoya janri.

R.Thokur asarlari hayotiyliigi, tuyg‘ularning ortiqcha jimjimadorsiz ifodalanishi bilan ajralib turadi. Uning asarlarini o‘qir ekansiz tonggi musaffo havoni go‘yoki sipqorasiz. “Shubxa” hikoyasi ham bir nafasda o‘qiladigan asar. Hikoya janri imkoniyatlari keng (3). Asarning nomlanishiyoq maqolamiz ob’yekti bilan hamohang. Shubxa Shubxashini so‘zining qisqartmasi. Shubxashini esa shirin zabon degani. Ota onasi qizlarining ismini insoniy sifatlar blan bog‘lab “xush tabassum”, “shirin zabon” ma’nolarini ifodalovchi nomlar bilan atagan. Afsuski, Shubxashini – “shirin



zabonli” qizning zaboni yo‘q, soqov. Bu soqovlik go‘yo oilasining boshiga la‘nat yog‘dirmoqda. Qizcha ummondek qalbi bilan bularni his qilgani uchun yolg‘izlikka intiladi. Qizning soqovligidan ona nomus qiladi (8). Ota esa hamma qizlaridan ham Shubxani yaxshi ko‘radi. Shubxa juda go‘zal qiz. Lekin biz uchun uning tashqi go‘zalligi emas, ichki olamining tahlili qiziq. Hikoyada tilsiz-zabonsiz qizgagina taalluqli bo‘lgan xususiyat ifodalanadi – ko‘z tili. Aslida, ko‘z tili barcha insonlarda mavjud. Bu ayniqsa, oshiq qalblarda yaqqol ko‘rinadi. Shubxashinining “ko‘z tilining ifoda kuchi esa cheksiz: bu ifoda dengizdek chuqur, osmondek tiniq” (1).

Hikoyada predmetlarni ham insoniy sifatlar bilan sifatlash motivlarini ko‘ramiz. Masalan, daryo haqida “bu daryo o‘rta tabaqaga mansub qizlarday odob saqlab, o‘zining tor qirg‘oqlaridan sira oshib toshmasdi”. Go‘zal ifoda. Bu ta‘rifni o‘qir ekansiz, tavoze‘ bilan qaddi ozgina egilib, boshi quyi solingan, ammo viqorli qizni ko‘z oldimizga keltiramiz. Bu ta‘rif aslida daryo haqida, lekin muallif daryoning ta‘rifi orqali qiz bolaga odob, tavoze‘ naqadar yarashishini, bu bilan u yana-da go‘zallashishini qistirib o‘tmoqda. Ushbu ta‘rifni o‘qir ekanmiz, odobli qiz daryo kabi oshib toshmaydi, u o‘z chegarasini biladi, oshib toshish daryoga xos degan anglamni his etamiz. Adabiyotning vazifasi ham inson hislarini tartibga solish, avvalo, o‘zini idrok etishga ko‘maklashishdir, unga aql o‘rgatish emas.

Hikoyada mushohada o‘quvchi hukmiga havola qilinadi. Shubxa bilan Protap o‘rtasida iliqlik bor. Protap kulib “Shu (Shubxaning qisqargan varianti), senga er topishibdi! Endi sen u yerga borib erga tegasan. Ammo bizni ham esdan chiqarma”. Yigitning “bizni ham esdan chiqarma” deyishida talaygina ma‘no bor. “U ortiq hech narsa demay, yana baliq ovi bilan mashg‘ul bo‘ldi” jumlasida esa bir olam ma‘no bor. Qiz esa bu yangilikni shunday qarshi oldi: “Shubxa chopib kirdi-da, uning (dadasining) oyoqlariga yiqilib zor-zor yig‘ladi”(1). Bu yig‘ining ortida qizgagina ayon hislar mavjud. Lekin aniqki, qiz qishlog‘ini, shu qishloq bilan bog‘liq hislarini tashlab ketgisi yo‘q.

Mo‘jazgina hikoyadan bir dasta xulosalar olamiz. Subxa bilan bog‘liq yolg‘izlik, nomus, yaxshi ko‘rish, ko‘z tili, odob saqlash, izhor etilmagan sevgi, sevgi iztirobi, zor-zor yig‘lamoq, quchoqlamoq, shivirlamoq, erkalatuvchi nigoh tashlamoq va insonga xos eng



muhim sifatardan orzu qilish hikoyaning tuyg‘ularga boyligini ta’minlaydi. Shu sababdan hikoyaning shirin-ayanchli “ta’mi” uzoq vaqt yodingizda qoladi. Eng muhimi insonning har qanday shakli ortida Qalb borligini his qilasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 8-sinf adabiyot darsligi. Olim S., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, T.,-2019.
2. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. T. : A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
3. U.Normatov. (1970) Janr imkoniyatlari. Toshkent: Adabiyot va san’at
4. “Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent. 2022.